



133. Kilometr

Yondosh mavzu:
yengil atletika.

Uzunlik, uzunlik
o'lchov birliklari




1. Uzunlik quyidagi birliklar: millimetr, santimetr, detsimetr va metr yordamida o'lchanishini bilasiz. Ushbu obyektlarni o'lchashda qaysi birliklardan foydalanish qulayroq?



Bir kilometr ming metrdan iborat.
1 km = 1000 m.

2. Bo'sh joylarni to'ldiring.




1km = 1000...
1m = 10...
1dm = 10...
1cm = 10...
1m = 100...
1dm = 100...



3. Rasm bo'yicha yugurish yo'lakchasining uzunligini toping.

350 metr

150 metr



4. Bahorda sportchilar 2 km uzoqlikka yugurish mashqini o'tkazdilar. Unda 37 nafar ayol va 44 nafar erkak qatnashdi. Barcha qatnashchilar 9 ta guruhga bo'lindi. Har bir guruhda necha nafar sportchi bo'lgan?



5. Taqqoslang.

1 km 10 m
10 cm 1 m

1 km 100 m
10 dm 1 m

1 m 100 cm
100 mm 1 dm



6. Bir o'lchov birligini boshqa o'lchov birligiga o'tkazing.

2 m 30 cm = cm

4 dm 5 cm = cm

31 dm = cm

97 cm = mm



7. Marafonda uchta sport klubining har biridan baravardan jami 30 nafar sportchi qatnashdi. Har bir klubdan necha nafardan sportchi qatnashgan?



8. Hisoblang.

1 km – 900 m

1 km – 540 m

1 km – 285 m

345 m + 144 m

284 m + 499 m

238 m + 621 m